

IJODKORNING SYUJET VA KOMPOZITSIYA YARATISH MAHORATI

Bahor To'rayeva,*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori, dotsent***Kimyoxon Soliyeva,***O'zMU magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasidagi syujet, kompozitsiya tahliliga qaratilgan bo'lib, unda ijodkorning uslub yaratish mahoratiga ham nazar solib o'tilgan.

Kalit so'zlar: syujet, kompozitsiya, Oqbo'yin, uslub, qissachilik, nasr, ijodkor mahorati.

Abstract. This article focuses on the analysis of the plot and composition of Normurod Norqobilov's story "Oqboyin", and also examines the author's skill in creating style.

Keywords. plot, composition, Oqboyin, style, storytelling, prose, creative skill.

Аннотация. В данной статье анализируется сюжет и композиция рассказа Нормурода Норқобилова "Оқбойин", а также рассматривается мастерство автора в создании стиля.

Ключевые слова: сюжет, композиция, "Оқбойин", стиль, повествование, проза, творческое мастерство.

Kirish. Ijodkorning badiiy niyati va estetik maqsadi syujet va kompozitsiya orqali namoyon bo'ladi. Syujet – voqelikni badiiy talqin qilish vositasi sifatida san'atning shakllanma mexanizmini belgilasa, kompozitsiya – asar tuzilmasining ichki muvofiqligini, badiiy muvozanatini ta'minlovchi asosiy uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek nasrining taraqqiyotida bu ikki unsur badiiy tafakkurning yetukligidan dalolat beradi. "Syujet (frans. predmet, "asosga qoyilgan narsa") badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi".[1.163.]

Adabiyotlar shahri. Zamonaviy o'zbek nasrida syujet va kompozitsiya masalasi, ayniqsa, qissa janrida yanada murakkab va qatlamli tus olmoqda. Qissa hajman ixcham, ammo mazmun jihatdan serqatlam badiiy shakl bo'lib, muallif ijodiy salohiyati aynan voqealar tartiboti va kompozitsion qurilishi orqali ochib beriladi. Bu borada Normurod Norqobilov ijodi, ayniqsa, uning "Oqbo'yin" qissasi ajoyib na'muna hisoblanadi. Asardagi syujet harakati oddiy dramatik chizgilardan iborat emas, balki ichki ziddiyatlar, psixologik partretlar va murakkab vaqt-makon o'zgarishlari orqali shakllanadi. Adabiyotshunos D. Qurinov ham o'zining "Adabiyot nazariyasi asoslari" kitobida: "Barcha turdagi asarlarda ham syujet mavjuddir", – deya ta'kidlab o'tadi.[1.164.]

Tadqiqot metodologiyasi. Normurod Norqobilov ijodiy salohiyati, so'z qo'llash mahorati, mavzu ko'lamining davr va shaxs munosabatlari vositasida yuzaga kelishi bilan ham farqlanib turadi. Ijodkorning "Oqbo'yin" qissasida ijtimoiy jamiyat muammolari va ifodalanayotgan mavzuning adabiy-badiiy xususiyatlarini ifodalab berishda reallik, ifodaviylik, badiiy detallar katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, qissadagi har bir badiiy

detal gapiradi: tovuq pati, chirigan xashak, harom o'lgan buzoq eti, hovli burchagidagi teshikdan dam-badam mo'ralab qo'yadigan kalamush. Bularning bari asarning realligini oshirishga xizmat qilgan.

Tahlillar va natijalar. Normurod Norqobilov ijodiyotida asosan tabiat tasviri, hayvonot olamining yorqin planda ifodalanishi mahorat bilan, shuningdek, jamiyat va xalq tasvirining ramziy vositalar asosida yoritib berish xususiyati ko'zga tashlanadi. Misol uchun, ijodkor qissadagi Karim podachi obrazini rostdan ham xalqona, juda tabiiy yoritadi. Karim podachini partretini o'qigan kitobxon go'yoki undan chiqayotgan hidni ham his etadi. Bu esa yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi. "Oqbo'yin o'zining murg'ak aqli bilan onasi bejizga bezovtalanmaganini darrov fahmlab, qadam tovushlari eshitilgan tomon o'girildi va eshikda uy egasi Sodiqni ko'rdi. Qavatida tajang qiyofali norg'ul bir odam – Karim podachi, egnida yag'iri chiqqan paxtalik, boshida eski qoramtir telpak, go'yoki kim bilandir mushtlashgani kelgandek rangi uniqqan kirza etikli oyoqlarini kerib turardi. Undan go'ng, pichan, silos, tutun va yana allanimalarning hidi anqirdi".[2.3.] Yozuvchi ijodida yana bir narsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Normurod Norqobilov ijodida asarlar janrining yaratilish xususiyati, epik tur uslublarining o'zaro matn kontekstida individual tarzda yuzaga kelishi bilan ham ajralib turadi. Birgina "Oqbo'yin" qissasida tasvir uslubining noan'anaviy tarzda ifodalanishi ijodkor mahorati bilan bevosita aloqadorlikni tashkil etadi. Mavzu ko'lamidan kelib chiqib, asarga o'ziga xoslikni baxsh etuvchi detallar, yaratish uslubining zamonaviy va milliy qadriyatlarga xosligining yuzaga kelishi bilan ham boshqa asarlardan ajralib turadi.

Kompozitsiya esa voqelik emas, balki ruhiy holat, eslash, tassurot, g'azab va bosiqlik kabi bir qator hislarning tartiblanishi va ularning o'tkir ijodkorona mahorat bilan bir ipga tizilishidan iborat bo'lib, aynan shular asar voqealar rivojini tebratuvchi kuch bo'lib, asar voqealarining o'tkir tus olishiga sabab bo'ldi. Yuqoridagi qissada portret va peyzaj tasviriga ahamiyat berilar ekan, ijodkorning ona zamin va uning bir bo'lagi bo'lgan hayvonot dunyosini bor chiroyi va maftunkorligini yorqin bo'yoqlarda ifodalashga erishilganini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchilar tabiiy manzarani tasvirlashda ko'chma ma'noli so'zlardan, iboralar va maqollardan unumli foydalangani kuzatiladi. Kun, fasl, biror tabiat hodisasi sodda, aniq bayon qilinadi. Peyzaj tasvirida badiiy vositalar – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish ham o'rinli qo'llanganki, bu yozuvchining mohirona iste'dodidan darak berib turibdi. Qissada ob-havo ham obrazlarining kayfiyatiga monand tarzda kiritilishi muallif badiiy niyatini anglatish hamda qahramonning ichki holatini kitobxonga his qildirishga xizmat qiladi.

Ushbu qissa orqali ijodkor zamonaviy syujet qurilishi, psixologik portretlashtirish, retrospektiv usul va dramatik struktura uyg'unligining yangi talqinini yaratdi. Adabiyotshunoslikda ushbu tushunchalarning har biri muhim badiiy kategoriya hisoblanadi. Ijodkor Normurod Norqobilov ham "Oqbo'yin" qissasida fabuladan ajoyib syujet yarata olgan ijodkordir. Zero, adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta'kidlaganidek:

“Syujet – bu asarning syujetli taraqqiyoti, ya’ni voqealar rivoji, ziddiyatlar, to‘qnashuvlar, yechimlar jarayonidir. Bunda fabula esa faqat voqealarning mantiqiy ketma-ketligidir”.[3.72.] Normurod Norqobilovning yaratish uslubi kompozitsiyaning syujet bilan aloqador qismlarida ham yuzaga keladi. To‘g‘ri, ijodkorlar asarlarining mavzu ko‘lami bir-biriga yaqin yoki o‘xshash bo‘lishi mumkin, biroq, Normurod Norqobilovning ijodiy faoliyati insonlarga xos bo‘lgan xarakter xususiyati, ijtimoiy jamiyatga nisbatan munosabat shakllari, xatti-harakat shakllarining hayvonot olamiga ko‘chirilishi bilan o‘ziga xoslikni hosil qiladi.

Normurod Norqobilov qissalarida esa inson va nabobod olami o‘rtasidagi bog‘liqlik majoziy obrazlar orqali insonning shafqatsizligi, tabiatga bo‘lgan munosabati va inson ruhiyatidagi evrilishlar o‘z ifodasini topgan. Shunday ruhda yaratilgan asarlaridan biri bu – “Oqbo‘yin” qissasidir.

Normurod Norqobilov ijodining boshqa ijodkorlardan farqli jihatlaridan biri boshqa ijodkorlar asarlaridagi ko‘plab ikkinchi darajali obrazlarning bosh obraz darajasiga ko‘tarilishi va obrazlarning voqelik nuqtayi nazaridan turlarga bo‘linishidir. Ko‘p hollarda chol, bola va tabiat, tabiatdagi unsurlar asosiy detal sifatida qalamga olinadi. Tasvir va syujetga qurilgan voqelik an’anaviy uslubda amalga oshiriladi. Asar tarkibidagi tasvir va syujet asosiga qurilgan voqelik o‘zbek adabiyoti va jahon adabiyoti ijodkorlari asarlarida ham uchraydi. Bu borada Jek London, Ernest Seton Tompson, Shukur Xolmirzayev va Normurod Norqobilov asarlari birga taqqoslanishi bejiz emas.

Bu farq badiiy asarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Fabula – asarning material tomonidir, voqealar ketma-ketligi; syujet esa badiiy shakllantirilgan, muallif tanlagan tartibda berilgan voqealar tizimidir. Fitrat ham syujetni “Syujet asarning badiiy mexanizmi”, – deya ta’riflab, uning ichki harakat, dramatik chiziq va estetik g‘oyaga xizmat qiluvchi unsur ekanligini ta’kidlaydi.[4.41.]

Kompozitsiya esa bu syujetning tashkiliy va tuzilmaviy asosidir. Kompozitsiya vositasida asarda:

Ekspozitsiya (kirish)

Voqealar rivoji

Kulminatsiya

Tugun

Yechim kabi qismlar tuziladi.

H.Boltaboyevning fikricha ham kompozitsiya – “badiiy asarning tanlangan shaklda tashkil etilish usuli bo‘lib, u ijodkor maqsadini to‘laqonli ro‘yobga chiqaradi”.[5.26.]

Normurod Norqobilovning asarlarida aynan shu unsur – syujet va kompozitsiya – mualliflik pozitsiyasi, ruhiy kechinmalar va xarakter qurilishini aks ettiruvchi vosita sifatida ishlaydi. Ayniqsa, “Oqbo‘yin” qissasida syujet oddiy voqealar ketma-ketligidan emas, balki ichki kechinmalarining o‘tkir qirralari orqali shakllanadi.

Misol uchun, ijodkor qissadagi Karim podachi obrazini rostdan ham xalqona, juda tabiiy yoritadi. Karim podachini partretini o'qigan kitobxon go'yoki undan chiqayotgan hidni ham his etadi. Bu esa yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi. "Oqbo'yin o'zining murg'ak aqli bilan onasi bejizga bezovtalanmaganini darrov fahmlab, qadam tovushlari eshitilgan tomon o'girildi va eshikda uy egasi Sodiqni ko'rdi. Qavatida tajang qiyofali norg'ul bir odam – Karim podachi, egnida yag'iri chiqqan paxtalik, boshida eski qoramtir telpak, go'yoki kim bilandir mushtlashgani kelgandek rangi uniqqan kirza etikli oyoqlarini kerib turardi. Undan go'ng, pichan, silos, tutun va yana allanimalarning hidi anqirdi".[7.3.]

Zamonaviy o'zbek adabiyotida qissa janri badiiy tajriba va ruhiy chuqurlikni ifodalashga eng mos shakllardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, syujet va kompozitsiya unsurlari bilan bog'liq holda til va uslub masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmioda. Qissada badiiy til – bu shunchaki matn eams, balki voqelikni muallif nuqtayi nazarida idrok etish, tasvirlash va baholash vositasidir. H.Boltaboyevning ta'kidlashicha: "Badiiy til badiiy fikrning asosiy vositasi sifatida syujet, xarakter, g'oya, muhit va konfliktni ochishda yetakchi rol o'ynaydi. Nasrda til – xarakter tafakkurining shaklidir".[5.27.] Bu fikrga ko'ra, yozuvchining uslubi faqat til orqali emas, balki butun syujet va kompozitsion konstruksiya orqali yuzaga chiqadi. Qissalarda har bir hikoya yo'nalishi, tasvir usuli, personaj tafakkuri muayyan stilistik yuklama orqali shakllanadi. Ijodkor "Oqbo'yin" qissasida xronologik syujet turidan foydalangan bo'lib, asarda ekspozitsiya, kulminatsiya, voqealar rivoji va yechim ketma-ket yoritilgan.

Xotamjon Umarovning "Adabiyot nazariyasi" kitobida uslubni quyidagicha ta'riflaydi: "Uslub – bu asarning yozilish usuli emas, balki uning badiiy mohiyatini ochishga qaratilgan ichki ifoda tizimidir. U ijodkorning dunyoni ko'rish uslubi, obrazli tafakkuri, til boyligi, sintaktik va semantik konstruksiyalarini tanlashida namoyon bo'ladi".[6.99.] "Oqbo'yin" qissasi syujeti zamiriga singdirilgan yana bir o'tkir g'oya borki u ham bo'lsa Vatan va Vatanga muhabbat hissidir. Oqbo'yin misolida ramziy ma'noda o'z hududi – Vatanini himoya qilayotgan shaxs tasviri berilgan. Ushbu obraz asarda Vatanga hurmat, Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini yanada ochib berilishga xizmat qilgan. Vatan tushunchasi ilk bor onadan boshlanishiga bir ishora berib o'tilgan. Misol sifatida Oqbo'yinning holatini keltirib o'tishni lozim topdik. "Oqbo'yin shirin tamdan sarxush tortib, tumshuq yalab turganda birdan tom boshida tapir-tupur boshlanib, nimadir jon holatda big'illadi-da, ko'zlari bejo, tuklari hurpaygan qop-qora bir mushuk oldiga tap etib tushdi. Oqbo'yin uning vajohatidan cho'chimadi, qaytanga bir onlik hayratdan so'ng dumchasini likkillatib, u bilan o'ynashmoq istadi. Qora mushuk esa tahdidli big'illadi-da, jon halpida devorga sakradi, ivigan tuproq ko'chib, u tag'in gup tushdi. Kechadan qolgan kattakon suyakni g'ajishga tushgan onasi qora maxluqni oldiga solib, chir aylantirib quva ketdi.

Ona itning bu harakatidan Oqbo‘yin yana bir saboqni oldi, ya‘ni mazkur makon yolg‘iz o‘zlariga tegishli ekanini, o‘zga bir jonzot qadam qo‘ymoqqa aslo haqqi yo‘qligini anglab yetdi. U tomida jarohatini yalab-yulqayotgan targ‘il mushukka qarab, chinakkamiga akillashga tushdi”. [7.11.]

Xulosa. Demak, zamonaviy qissalarda til va uslub tahlili syujet va kompozitsiya elementlarini to‘liq anglamasdan turib amalga oshirilishi mumkin emas. Shu bois, zamonaviy adiblar, xususan, Normurod Norqobilov qissalarini o‘rganishda til-uslub masalasi syujetdagi ruhiy holat, voqealarning uzviy bog‘langanligi va vaqt-makon tushunchasi bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim. “Oqbo‘yin” qissasini bu jihatdan juda qiziqarli misol sifatida keltirsak bo‘ladi. Qissada muallif tilidan tashqari, qahramonlarning ichki nutqi, retrospektiva – bularning hammasi umumiy syujetning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi. Ular zamonaviy uslubga xos psixologik realizm va ichki dramatismni yaratadi. Darhaqiqat, Dilmurod Quronov aytganidek: “Zamonaviy adabiyotda muallif matni ichki monologlar, fragmentar sintaksis, vaqt va makon elastikligi, nomuvofiq kompozitsiya orqali quriladi. Bu esa asar voqealari ketma-ketligini emas, balki ruhiy kechinmalarni tartiblaydi”. [1.122.] Quronovning bu fikriga ko‘ra, zamonaviy qissalarda til syujetdan ajralmas bir komponentga aylanadi. “Oqbo‘yin” qissasida muallif har bir so‘z, gap hatto pauzalarni ham kompozitsion ifoda sifatida ishlatadi. Asarda ba‘zan jismoniy harakar yo‘q, lekin voqea davom etadi ya‘ni ruhiy harakatlar aks etadi – bu esa uslubiy jihatdan o‘ziga xoslikni yaratadi. Bunday yondashuv “Oqbo‘yin” qissasida ko‘p holatlarda psixologik kuchlanishlar, ichki monologlar va tasviriy vositalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, bosh qahramon Oqbo‘yinning ichki kechinmalari, xotiralari bilan ruhiy tushkunlik o‘rtasidagi stilistik farq, yozuvchi tomonida kompozitsion vosita sifatida ishlatilgan. Bu esa nafaqat til, balki kompozitsion qurilmaning semantik og‘irligini ham oshiradi. Demak, zamonaviy qissalarda asosan syujet – bu ko‘proq “ruhiy harakat”, kompozitsiya esa “hissiy struktura”dir. Bular esa til va uslub orqali badiiy bo‘yoqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari.–Toshkent. Akademnashr. 2018.
2. Norqobilov N. “Oqbo‘yin” qissa va hikoyalar to‘plami – T.: “Oltin qalam”, 2025 .
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2011.
4. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – “Fan”. 1995.
5. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – T.: O‘qituvchi. 1992.
6. Umarov X. Adabiyot nazariyasi. – T.: Akademnashr. 2020.
7. Norqobilov N. “Oqbo‘yin” qissa va hikoyalar to‘plami – T.: “Oltin qalam”. 2025.